



Badiiy adabiyot estetik tarbiya omili sifatida

Fozilova Odina Nabiyevna –

Farg'ona davlat universiteti

“Maktabgacha” ta’lim kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD),

E-mail: fozilovaodina@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-7616-7612>

Sobirova Gulnoza Abiljon qizi –

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy kompetentsiyasini shakllantirishning bir qismida ham aynan badiiy adabiyotning o'ziga xos o'rni borligi, bu o'rin bolalardagi hozirjavoblik, insoniy fazilatlarning shakllanuvda o'z ifodasini ko'rsatib borishi haqida fikrlar bildirilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik kompetensiyani shakllantirishda badiiy adabiyot o'zgarmas, tabiiy va eng samarali vosita ekani, u bola qalbida nafaqat go'zalikka muhabbat, balki axloqiy, ma'naviy va ijodiy fazilatlarni ham uyg'otib borishiga doir qarashlar, asoslar ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: bola, ta'lim, tarbiya, adabiyot, ta'sir, fazilat, go'zallik, idrok.

Литература как фактор эстетического воспитания

Аннотация. В статье высказываются взгляды на особую роль художественной литературы в формировании творческой компетентности у детей дошкольного возраста, которая находит свое выражение в формировании ответственности и человеческих качеств у детей. Высказываются взгляды и обоснования того, что художественная литература является неизменным, естественным и наиболее эффективным средством формирования эстетической компетентности у детей дошкольного возраста, пробуждая в ребенке не только любовь к искусству, но и нравственные, духовные и творческие качества.

Ключевые слова: *ребенок, образование, воспитание, литература, влияние, добродетель, красота, восприятие.*

Literature as a factor of aesthetic education

Annotation. *The article expresses the views that fiction plays a special role in the formation of creative competence in preschool children and that this role is expressed in the formation of responsibility and human qualities in children. The views and foundations are expressed that fiction is an invariable, natural and most effective tool for formation of aesthetic competence in preschool children, and that it awakens in the child not only a love of art, but also moral, spiritual and creative qualities.*

Keywords: *child, education, upbringing, literature, virtue, beauty, perception.*

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik tarbiyasini shakllantirishda musiqa va san'atning o'рни alohida bo'lgani kabi, badiiy adabiyotning ham o'z xizmati bor. Ilk obrazli tasavvur, so'zamollikka qiziqish, o'z fikrini erkin bayon qilish, muloqot ko'nikmalarining shakllanishi, obrazlarni his etish kabi bosqichlar maktabgacha katta va tayyorlov yoshida ayniqsa muhimlik kasb etib boradi. Bu davrda bolaga amaliy ko'mak berish, yoshiga mos adabiyotlarni to'g'ri tanlay bilish, o'qib berish, hikoya qilib berish, yod oldirish, suhbatlashish, savol-javoblarni amalga oshirish bolaning ham tafakkuri, ham tasavvuri shakllanishida ijobiy samara beradi.

Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik tarbiyasini shakllantirishda muhim omillardan biridir. Savollari hamda so'z boyligi tobora ortayotgan, yangi so'zlarga va ularning ma'nosiga qiziqishi ortayotgan maktabgacha yosh davri otilada ota-ona uchun ham, tarbiyachi-pedagog uchun bir birdek qulay imkoniyat davridir. Badiiy adabiyotning nasr, nazm janrlariga taalluqli she'r, kichik hikoyalar bolalarning tasavvurini yorqinlantirishga xizmat qilsa, tez aytishlar nutqni ravonlashtirishga, topishmoqlar esa diqqat va xotiraning yaxshilanisha yordam beradi. Badiiy adabiyot nafaqat tarbiya asosi, balki estetik tarbiyaning ham muhim vositasidir. Bola badiiy asarni tinglash asnosida undagi qahramonlar tilini, holatini, xarakterini, vazifatini sekin-astalik bilan tushunib, tasavvur qilib boradi. Ertak yoki hikoyadagi badiiy tasvirlarni o'zicha tasavvur etishga intiladi, shu ma'noda badiiyyat va go'zallik olamiga o'zi bilmagan holda sekin-astalik bilan kirib boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Badiiy adabiyot bolalarda estetik did, hissiy sezgirlik va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim omil sifatida keng o'rganilgan. Klassik pedagogik nazariyalar va zamonaviy tadqiqotlar badiiy matnlarning bolalar va o'smirlarning estetik tarbiyasidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Vygotskiy badiiy asarlarni bola psixikasini rivojlantirish va ijtimoiy hamda hissiy tajribalarni boyitish vositasi sifatida ko'radi. Shu bilan birga, A.Makarenko va K.Ushinskiy pedagogik asarlarida badiiy matnlarning axloqiy tarbiya, ijtimoiy qadriyatlar va hissiy intellektni rivojlantirishdagi o'рни ta'kidlangan.

Zamonaviy tadqiqotlar ham badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyatini tasdiqlaydi. Masalan, Karimova (2016) o'quvchilarda estetik didni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'рни sezilarli ekanligini ko'rsatadi, u matnlar orqali bolalarning tasavvur, hissiyot va empatiya qobiliyatlarini rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Tursunova badiiy matnlarni pedagogik jarayonda tizimli qo'llash bolalarning ijodiy fikrlash va estetika bilan bog'liq ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam berishini ko'rsatadi.

Badiiy adabiyotning tarbiyaviy imkoniyatlari nafaqat estetik didni rivojlantirish, balki axloqiy qadriyatlar, hissiy ong va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ham namoyon bo'ladi. Shu sababli pedagoglar o'quv jarayonida badiiy matnlarni yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tanlashlari va tizimli tarzda ishlatishlari lozim. Umuman olganda, adabiyot tahlillari shuni ko'rsatadiki, badiiy adabiyot estetik tarbiyaning samarali omili bo'lib, bolalar va o'smirlarning hissiy, ma'naviy va ijodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda markaziy rol o'ynaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot badiiy adabiyotning estetik tarbiyadagi pedagogik va psixologik ahamiyatini aniqlashga, bolalar va o'smirlarning hissiy, ma'naviy va ijodiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot nazariy-metodik asoslarini zamonaviy pedagogika va psixologiya nazariyalari tashkil etadi, xususan, Vygotskiyning ijtimoiy-kognitiv yondashuvi bolalarning hissiy va ijtimoiy tajribalarini badiiy matnlar orqali boyitishga imkon beradi, Makarenko va Ushinskiyning pedagogik konsepsiyalari esa badiiy asarlar yordamida axloqiy va estetik tarbiyani shakllantirishning amaliy asoslarini belgilaydi. Tadqiqot obyekti badiiy adabiyot va uning bolalar tarbiyasidagi roli bo'lsa, predmeti — badiiy matnlarning estetik tarbiya vositasi sifatida qo'llanilishi, shuningdek, ularning bolalarning hissiy, ijodiy va axloqiy rivojlanishiga ta'siridir.

Tadqiqotda nazariy tahlil, eksperiment, kuzatuv, anketalar va testlar hamda pedagogik intervyular usullari qo'llanildi. Nazariy tahlil bosqichida badiiy adabiyot, estetik tarbiya va pedagogik metodologiya bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, badiiy matnlarni tanlash mezonlari aniqlangan. Eksperimental bosqichda tanlangan badiiy matnlar asosida bolalar guruhida estetik tarbiyaviy mashg'ulotlar tashkil etilib, bolalarning hissiy sezgirlik, empatiya, ijodiy fikrlash hamda axloqiy qadriyatlarni qabul qilish ko'nikmalari kuzatildi. Kuzatuv natijalari bolalarning badiiy matnlar bilan ishlashdagi faoliyati, reaksiyalari va ijodiy izlanishlarini qayd etdi. Anketalar va testlar orqali bolalarning estetik didi, hissiy sezgirligi va ijodiy tafakkur ko'nikmalari baholandi. Pedagogik intervyular esa pedagoglarning badiiy adabiyotdan estetik tarbiyada foydalanish tajribasini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqot uch bosqichda olib borildi: birinchisida adabiyotlar va nazariy asoslar tahlil qilinib, badiiy matnlarni tanlash mezonlari ishlab chiqildi; ikkinchisida bolalar bilan eksperiment o'tkazilib, ularning hissiy, estetik va ijodiy ko'nikmalari kuzatildi; uchinchisida esa eksperiment natijalari tahlil qilinib, badiiy adabiyotning estetik tarbiyadagi pedagogik samaradorligi bo'yicha xulosalar chiqarildi. Tadqiqotning metodik printsiplari yoshga moslik, individual yondashuv, faol ishtirok, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda badiiy matnlarni qo'llash, shuningdek, badiiy adabiyotning hissiy, ijtimoiy va estetik jihatdan birlashtirilgan rivojlanishiga e'tibor qaratishdan iborat bo'ldi. Shu yondashuv orqali badiiy adabiyot bolalarda estetik didni shakllantirish, hissiy sezgirlikni rivojlantirish va ijodiy tafakkur hamda axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Badiiy adabiyot har qanday davrda o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, ajdodlardan avlodlarga yetib keladigan ma'naviyat, axloq-odob va qalb go'zalligini tiklovchi muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, badiiy adabiyot maktabgacha yoshdan boshlab oilada ota-ona va farzand o'rtasida o'rnatiladigan ma'naviy muloqot va hissiy bog'lanishning muhim omili bo'lib, bolaning keyingi hayotida yetuk, barkamol shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu ma'noda, badiiy adabiyotning bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni ularning yoshi, qiziqishi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy va mutolaa jarayonini to'g'ri yo'naltirish orqali aniqlanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, maktabgacha yoshdagi bolalar hali hayotni to'liq tushunmagan, o'rab turgan muhit haqida cheklangan ma'lumotga ega bo'ladi, shuning

uchun ularga ortiqcha ma'lumot "yuklash" psixik rivojlanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli asarlarni tanlashda bolalarning yosh xususiyatlariga moslash, vaqt me'yorini hisobga olish va o'quv faoliyatini qisqa, ammo mazmunli qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, kichik yoshdagi bolalar (3–4 yosh) uchun 10 daqiqalik, o'rta yoshdagi bolalar (4–5 yosh) uchun 15 daqiqalik, katta yoshdagi bolalar (5–6 yosh) uchun 15–20 daqiqalik va tayyorlov guruhidagi bolalar (6–7 yosh) uchun 20 daqiqalik badiiy o'qishlar ularning ruhiy olamida kichik sayohat, hissiy tajriba va tasavvur dunyosini kengaytiruvchi faoliyat sifatida xizmat qiladi.

Kuzatuv va psixologik tahlillar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy faoliyat turi o'yin bo'lib, ular o'yin jarayonida o'z qiziqishi va e'tiboriga mos ravishda bilim oladi. Shu bois, badiiy adabiyotning estetik tarbiyadagi samaradorligi bolalarga qisqa, aniq va o'z vaqtida yetkazilgan matn orqali bolalar xotirasida saqlanadigan hissiy tajriba bilan bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik kompetentsiyasini shakllantirishda markaziy rol o'ynaydi. Estetik kompetentsiya bu bolalarning san'at va hayotdagi go'zallikni idrok etish, his etish, unga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish va ijodiy ifodalash qobiliyati bo'lib, u quyidagi tarkibiy elementlarni o'z ichiga oladi: estetik idrok (go'zallikni ko'ra va eshita olish), estetik his-tuyg'u (quvonch, hayrat, zavq), ijodiy faoliyat (she'r aytish, hikoya tuzish, rasm chizish, rolli o'yinlar). Badiiy adabiyot bolalar qalbiga yo'l topuvchi eng ta'sirchan estetik vosita bo'lib, uning yordamida bola so'zning go'zalligini his qilish, obrazlar dunyosiga sho'ng'ish, hissiy tajribalarni ifoda etishni o'rganish, milliy qadriyatlar, tabiat va jamiyat go'zalligini anglash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Ertaklar orqali bolalar yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashni anglab, orzular va mo'jizalar dunyosini his etadilar; she'rlar orqali so'z musiqasi, ritm va obrazlilikdan zavq olishadi; hikoyalar orqali hayotiy voqealar asosida hissiy tajriba orttiradilar; topishmoq va maqollar esa tafakkur, so'z o'yini va xalq donoligi orqali estetik tafakkurni rivojlantiradi.

Pedagogning faoliyati bolalarda estetik kompetentsiyani shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda samarali usullar sifatida asar asosidagi suhbat bolalarning obrazlar, xatti-harakatlar va go'zallik haqida fikr bildirishiga imkon yaratish; rasm chizish va sahnalashtirish bolalarning ijodi orqali asardagi obrazni ifodalash; musiqa va adabiyot integratsiyasi she'r yoki ertakni musiqa va qo'shiq bilan uyg'unlashtirish ko'rsatildi. Ushbu usullar bolalarning estetik idrokini, hissiy sezgirligini va ijodiy faoliyatini samarali rivojlantiradi, ularning shaxsiyati, didi va tafakkurini shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari badiiy adabiyotning maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik tarbiyasida markaziy o'ringa ega ekanini, uning yordamida bolalar hissiy, ijodiy va axloqiy jihatdan rivojlanishini ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi. Shu sababli pedagog va ota-onalar badiiy matnlarni yoshga mos, qisqa va mazmunli tarzda tanlab, tizimli va ijodiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish orqali bolalarning estetik kompetentsiyasini maksimal darajada shakllantira oladilar.

XULOSA

Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik tarbiyasida markaziy o'ringa ega bo'lib, u bolalarda hissiy sezgirlik, estetik did, ijodiy tafakkur va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi. Bolalarning yoshi, qiziqishi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlangan badiiy matnlar ularning estetik kompetentsiyasini — ya'ni go'zallikni idrok etish, his etish, unga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish va ijodiy ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Badiiy adabiyot bolalar qalbiga yo'l topuvchi eng ta'sirchan vosita bo'lib, uning yordamida bolalar so'zning go'zalligini his qiladi, obrazlar dunyosiga sho'ng'iydi, hissiy tajribalarni ifodalashni o'rganadi va milliy qadriyatlar hamda jamiyat go'zalligini angelaydi. Shu bilan birga, pedagog va ota-onalar tomonidan badiiy matnlarni yoshga mos, qisqa va mazmunli

tarzda tanlash, ijodiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish bolalarning estetik kompetentsiyasini maksimal darajada rivojlantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy, ijodiy va axloqiy rivojlanishida ajralmas pedagogik vosita bo'lib, u bolalarning shaxsiyati, didi va tafakkurini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. N.Karimova Badiiy adabiyot va estetik tarbiya. Toshkent: Fan, –2016.
2. S.Tursunova Bolalarda estetik didni rivojlantirish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, –2018.
3. L.K.Akhmedova O'quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari. Toshkent: Fan, –2019.
4. S.Usmonova Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi va estetik tarbiya. Toshkent: O'qituvchi, –2020.
5. M.Eshqulova Bolalarda san'at va badiiy didni shakllantirish metodikasi. Toshkent: Fan, –2017.
6. B.Rahmonov Estetik kompetentsiya va maktabgacha ta'limda badiiy adabiyot. Toshkent: O'qituvchi, –2015.
7. D.Nazarova Badiiy matnlar orqali bolalarda estetik tarbiyaviy jarayon. Toshkent: Fan, –2018.
8. L.S.Vygotskiy Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.